

DOI: 10.5281/zenodo.15714054

Link: <https://zenodo.org/records/15714054>

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI

Mannopova Muazzam Sultonbekovna

Farg'ona davlat universiteti,

Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: muazzam.mannopova@gmail.com,

[+998905349413](tel:+998905349413)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti rivojlanishining o'ziga xos tendensiyalariga ega ekanligi, bu esa mamlakatimiz qishloq xo'jaligi rivojlanishida muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tilgan. Lekin shu bilan birga, agrar tarmoqda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va uni eksportga chiqarish borasida juda katta to'liq foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligi, shunindék, respublikamizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari ichki talabdan ortiqcha bo'lgani holda, nobud bolishiga yo'l qo'yilayotganligi, bu esa mamlakatimiz qishloq xo'jaligida meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish zaruriyatini, qolaversa meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishning muhim vazifalari yoritilgan. Maqolada meva-sabzavot mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishning AQSh va Xitoy kabi mamlakatlar misolida o'rganilgan. Shu bilan birga O'zbekiston va Xitoy respublikasida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va sotishni baholash mezonlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Agrar tarmoq, meva-sabzavot, eksport salohiyati, qishloq xo'jaligi, mahsulot, bozor bahosi, boshqaruv strategiyasi, savdo hajmi, daromadlilik darajasi.

Kirish

Mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligining boshqa sohalariga qaraganda ko'proq ishlab chiqarish hududlarining mavsumiyligi, tovarlarning tez buziladigan xususiyatlari, uning keng assortimentlilik, o'simliklarning tuproqqa, iqlim va boshqa sharoitlarga bo'lgan talablari ko'proq ifoda etiladi. Shu bilan birga, ko'plab turdagi mahsulotlarni import qilish, tashish va saqlash zarurati mavjud.

Shuni aytish joizki, mamlakatimiz agrar tarmog'ida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va uni eksportga chiqarish borasida juda katta to'liq foydalanilmay yotgan imkoniyatlar mavjud. Tahlillar ko'rsatishicha, respublikamizda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari ichki talabdan ortiqcha bo'lgan yillarda meva-sabzavot mahsulotlarining ichki bozordagi o'rtacha baholari juda pasayib ketib mahsulot yetishtiruvchi dehqon zarar ko'rishi kuzatiladi. Shuningdek, shakllangan past bozor bahosi mahsulotlarni bozorga chiqarishga to'siq bo'lib, mahsulotning aksariyat ko'p qismi iste'molchiga yetmasdan nobud bo'lishiga olib keladi. Ko'plab

omillar bilan bir qatorda mahsulotlarning o'rtacha bozor baholari pasayishi yoki nobudgarchiliklar miqdori ortishida mahsulotni sotish tizimining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi katta to'siq bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy ahvoli yomonlashuvi orqali mamlakat aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muammolar paydo bo'ladi.

Meva-sabzavot mahsulotlari aholi iste'mol talablarini qondirishda asosiy o'rinni egallagan holda, qayta ishlash sanoati uchun ham asosiy xomashyo bo'lib, ushbu tarmoqda band bo'lganlarning daromad manbai hisoblanadi. Shu bois, meva-sabzavotchilik tarmoqlarini rivojlantirishga so'nggi yillarda mamlakat miqyosida katta e'tibor berilmoqda.

Asosiy qism

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, meva-sabzavot mahsulotlari turlarining istiqbolda rivojlanishiga birinchidan, ovqatlanish ratsionida meva, sabzavot va poliz mahsulotlari ulushi oshib borayotganligi kabi omillar sabab bo'lmoqda. Meva va sabzavot mahsulotlari bilan savdo qilish daromadli biznes hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy qiyoslashlarda meva va sabzavot mahsulotlari iste'mol darajasining yuqoriligi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanganligini belgilovchi omillar samarasiga kiritilgan.

2024-yilda O'zbekiston meva va sabzavot eksporti \$1,5 milliardga yetdi.⁵⁰ Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston 2 million tonna meva va sabzavot eksport qilib, 1,5 milliard AQSH dollari miqdorida daromad oldi. Eksportning asosiy yo'nalishlari MDH davlatlari, shuningdek, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bo'ldi. Rossiya importyor davlatlar orasida yetakchi bo'lib qolmoqda. Bu davlatga 815,1 ming tonna mahsulot yetkazib berilib, 632,9 million dollarlik daromad olingan. Bu Rossiya bozorining o'zbek I shlab chiqaruvchilari uchun asosiy ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ikkinchi o'rinni Qozog'iston egalladi. Bu davlatga 520,5 ming tonna meva va sabzavot yetkazib berilib, 189,8 million dollar daromad olingan. Geografik yaqinlik va mahsulotga yuqori talab tufayli Qozog'iston O'zbekiston eksportining an'anaviy muhim bozori hisoblanadi. Qirg'iziston yirik hamkorlar orasida uchinchi o'rinni egalladi. Bu davlatga 151,7 ming tonna mahsulot yetkazib berilib, 57,9 million dollarlik daromad olingan. Xitoy bozoriga 144,6 ming tonna mahsulot yetkazib berilib, 128,6 million dollarlik daromad olindi. Bu Xitoy bozorining O'zbekiston mahsulotlariga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganligini ko'rsatadi. Pokiston ham yirik importyorlardan biri sifatida e'tirof etildi. U yerga 124,7 ming tonna mahsulot eksport qilinib, 192,3 million dollarlik daromad olingan. Afg'onistonga 67,6 ming tonna meva va sabzavot eksport qilinib, 124,4 million dollar daromad olingan. Iroq 32,9 ming tonna mahsulot uchun 13,4 million dollar to'lagan bo'lsa, Turkiya 28,2 ming tonna mahsulotni 48,3 million dollarga import qilgan. Belarus ham muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, bu mamlakatga 22,6 ming tonna mahsulot eksport qilinib, 20,3 million dollar daromad keltirilgan. Bundan tashqari,

⁵⁰ (UzDaily.uz)

boshqa davlatlarga jami 128,5 ming tonna mahsulot yetkazib berilib, 141,7 million dollar daromad olingan.

Shunisi e'tiborliki, xorijiy mamlakatlarning milliy korxonalari tashqi bozorlarga chiqishda turli strategiyalarga amal qiladi. Misol uchun, Amerika kompaniyalari tashqi bozorlarni kengaytirish maqsadida yangi mahsulotlar joriy qilishga tayanadi. Yevropa strategiyalari ko'proq mudofaaga moyil hisoblanadi. Yevropa korxonalari, masalan, o'zlashtirib bo'lingan yoki ilgari o'zlashtirilgan bozorlar bilan chambarchas bog'liq bozorlarga kirib borishni afzal ko'radi. Yapon kompaniyalari kam xarajatli, mahsulot assortimenti cheklangan, ishlab chiqarish hajmi katta strategiyani qo'llaydi, bu ularga sotuv hajmini oshirish uchun asosiy raqobat vositasi sifatida narxdan foydalanish imkonini beradi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Yapon kompaniyalari kamroq yuklama xarajatlari faoliyat yuritadi, ularning ofislari esa ortiqcha hashamatga berilmagan bo'ladi. Yapon kompaniyalari tashkiliy tuzillari Yevropa korxonalari tuzilmalariga nisbatan soddaroq hisoblanadi.

AQSHda meva va sabzavot eksporti daromadlilik darajasi go'sht eksportiga tenglashtiriladi. AQSH qishloq xo'jalik departamenti yangi hisobotiga asosan meva va sabzavotchilikda daromad ko'tarilishi, transport xarajatlarini kamayishi, texnologiyalar yaxshilanishi, o'zaro manfaatli halqaro bitimlar tuzishga erishilishi jahon miqiyosida meva-sabzavot mahsulotlari savdosi hajmi va turlari barqaror o'sishiga olib keldi. Ushbu mahsulotlar savdo aylanmasining asosiy qismi Yel, Germaniya, Shimoliy Amerika erkin savdo hududi va Osiyo davlatlariga to'g'ri keladi.

Xitoyda meva-sabzavot mahsulotlari eksport strategiyasi birinchi navbatda Osiyo bozorlarini egallashga qaratilgan. Xitoy asosan, Osiyo davlatlarida mashhur bo'lib ulgurgan amerika meva va sabzavot navlarini yetishtirishni o'zlashtira boshladi. AQSH qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining 38 foizi Osiyo bozorlari hissasiga to'g'ri kelgan. Lekin bugungi kunda Xitoy Osiyo bozorlarini egallashga erishdi va AQSHning ushbu bozorlarga meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilishi keskin kamaydi.

Xitoy davlati olmani ko'p ishlab chiqarsada, uni eksport qilish jihatidan birinchi o'rinni AQSH egallab kelmoqda. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Xitoy davlati so'ngi besh yil davomida o'z eksport salohiyatini oshirishga qaratgan chora-tadbirlari natijasida olma eksportini ko'paytirishga erishdi.

Shuning bilan birga, meva – sabzavot mahsulotlari yig'im-terim davrida, bozorda chet ellik xaridorlar bilan shartnomalar tuzish va mazkur buyurtmalarni yirik mahalliy kompaniyalarda joylashtirish va ma'lum to'lov evaziga ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanuvchi uncha kata bo'lmagan vositachi firmalar – treyderlar faoliyat yuritadi.

Mamlakatimiz uchun Xitoy tajribasi ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, Xitoyda uzoq yillar davomida agrar sektor davlat tomonidan o'rnatilgan past xarid narxlari orqali donor tarmoq vazifasini bajardi. Bu mablag'lardan yirik davlat investisiyalarini moliyalashtirish uchun foydalanildi. 1978 yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun munosib narxlar o'rnatishdan boshlandi va u qisqa muddatda o'z natijasini o'laroq ishlab chiqarish hajmi o'sishiga va hosildorlik oshishiga olib keldi. Bundan tashqari, yangi agrar jamg'armalar qishloqda

kichik va o'rta biznes hamda sanoat tarmog'i rivojlanishi uchun manba bo'lib xizmat qildi. Ular esa 80-yillar o'rtalarida iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'ldi. Bu esa o'z navbatida soliq tushumlari ko'payishiga va infratuzilma hamda sanoat tarmog'iga investisiyalar o'sishiga olib keldi. Xitoyda islohotlar jarayonida birgina yirik ishlab chiqarishning oila xo'jaligi tizimiga almashtirilishi hech qanday qo'shimcha moddiy xarajatsiz 28 foiz qo'shimcha o'sishni ta'minladi.

Xitoyda yangi qishloq xo'jaligi strategiyasini qabul qilishda, nisbatan ko'proq foyda keltiradigan meva va sabzavotlar yetishtirishni oshirish kam daromadli g'alla yetishtirish hajmini qisqartirish hisobiga amalga oshirildi. Xorijiy kapital va texnologiyalardan foydalanish asosida yirik shaharlar atrofida ilg'or qishloq xo'jaligi markazlarini shakllantirish ham Xitoy agrar strategiyasining yangi yo'nalishidir. U yerda eng avvalo, an'anaviy (olma, nok, kartoshka) ekinlardan tortib, tropik (sitrus, mango, papay) ekinlargacha yetishtirish imkonini beruvchi, qulay iqlim sharoiti mavjudligini ta'kidlab o'tish kerak. Yer resurslari cheklanganligi va g'alla yetishtirish siyosatidan voz kechilishi ko'pchilik dehqonlarning meva-sabzavotlarni yetishtirish sohasiga o'tishlari uchun zamin yaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va eksport qilishga ixtisoslashgan xorijiy mamlakatlarda tashqi bozorlarga chiqishni ta'minlash uchun, tarmoqqa xorijiy investisiyalarni jalb qilish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Xitoy xorijiy investorlarga mahalliy dehqonlar bilan bevosita shartnomalar asosida ishlashga ruxsat bergan. 2-3 yil mobaynida investor dehqonni texnika va urug'lik bilan ta'minlaydi va buning evaziga 2 yil davomida soliq to'lashdan ozod etiladi. Hamkorlikdagi faoliyatning bunday shaklini Xitoylik dehqonlar faol ravishda rivojlantirmoqdalar.

Bizning fikrimizcha, keyingi yillarda respublikamizda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishga bo'lgan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilishi natijasida yangi eksport bozorlarini o'zlashtirishga imkon yaratildi va o'z navbatida samarali boshqaruv texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amalda qo'llashga bo'lgan talablar ham ortib bormoqda.

Milliy eksportyorlarni boshqa mamlakatlarda qo'llab-quvvatlash maqsadida Xitoyning xorijiy mamlakatlardagi elchixonalarida qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Shu jumladan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha keng doiradagi hamkorlik aloqalari olib borilmoqda.

Natija

Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda meva-sabzavot mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirishda quyidagi mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunga erishish uchun hosildorlik va ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, uning sifatini oshirish, qishloq aholisini ish bilan ta'minlash, eksport harajatlari kamaytirish, eksport geografiyasini kengaytirish, eksportni i davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va muntazam ravishda amaliyotga joriy etish lozim.

O'zbekiston va Xitoy meva-sabzavot mahsulotlari eksport salohiyatini baholash mezonlari⁵¹

№	Mezonlar	O'zbekiston	Xitoy
1.	Mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari, %	4.0-4.2	5.5-6.0
2.	Mahsulot yetishtirish uchun iqlim sharoiti	Qulay	Qulay
3.	Tibbiy me'yorga nisbatan ishlab chiqarish darajasi, %	112.5	145.0
4.	Qayta ishlash, umumiy mahsulot hajmiga nisbatan, %	20-25	40-50
5.	Qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi, %	60	50
6.	Ho'l meva-sabzavotlarning sifat darajasi	Past	O'rta
7.	Qayta ishlangan mahsulotlarning sifat darajasi	O'rta	Yuqori
8.	Eksportni davlat tomonidan qullab-quvvatlash shart-sharoitlari: -iqtisodiy -tashkiliy -huquqiy -xalqaro miqyosda	O'rta O'rta O'rta Past	Yuqori Yuqori Yuqori Yuqori
9.	Eksport xarajatlari	Yuqori	Past
10.	Eksport geografiasining diversifikatsiyalashuv darajasi	Past	Yuqori

Xitoyning mavjud salohiyatidan imkon darajada kengroq foydalanishi va ishlab chiqaruvchilarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashini inobatga olganda, jahon meva-sabzavot mahsulotlari bozorida o'z mavqeini saqlab qolishi shubhasiz. Mamlakatimiz meva-sabzavotchilik sohasida ishlab chiqarish sur'atlarini oshirishni boshlanmas ekan, Xitoy meva-sabzavotlari bozorlarimizni egallashiga o'zimiz zamin yaratgan bo'lamiz. Chunki, mazkur mamlakat bugungi kunda xalqaro meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bozorida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan yirik davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Xulosa

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rag'batlantirish mexanizmi o'zaro bog'liq bo'lgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlardan iborat bo'lishi lozim bo'ladi. Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga, ularning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori⁵² muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur qarorda ko'rsatilishicha, agrar sektorning eksport salohiyatini oshirish, qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish, xalqaro standartlar asosida mahsulotlarni sertifikatlash tizimini keng joriy etish va kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

⁵¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистикаси қўмитаси маълумотлари

⁵² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5853-сонли Фармони. //Халқ сўзи 2019 йил 24 октябр

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

- yangi maqsadli eksport bozorlarida muzokaralar olib borish va savdo kelishuvlarini amalga oshirishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash;
- mahalliy va maqsadli xalqaro bozorlarda qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlari boshqaruvi va tashish xarajatlarini kamaytirish;
- mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini maqsadli eksport bozorlariga chiqarish uchun «Made in Uzbekistan» brendidan foydalanishni kengaytirish imkoniyatlarini baholash;
- eksport bozorlari toʻgʻrisida maʼlumotlar taqdim etish, eksportga tayyorgarlik, savdo rejimi va savdoni moliyalashtirish boʻyicha maslahat xizmatlarini rivojlantirish;
- maqsadli bozorlar toʻgʻrisida maʼlumotlar toʻplash jarayonida, qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdosini ilgari surishda Oʻzbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining rolini oshirish;
- agrologistika markazlari negizida yagona savdo tizimini (ausion va birja savdolari asosida) joriy etish va hokazolar⁵³.

Mazkur mexanizmni samarali amalga oshirishda davlat asosiy muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi. Bunda davlatning bevosita boshqaruv koʻlami cheklangan boʻlishi, qoʻllab-quvvatlash mexanizmi maqsadli dasturlar doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga raqobatbardosh mahsulotlar hajmini va turlarini koʻpaytirish, xalqaro standartlarni joriy etish hisobiga tarmoqlar va hududlarning eksport salohiyatini yuksaltirish lozim. Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishga nisbatan eksportning ulushi pastligiga bir qator asosiy sabablar mavjud. Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchilar asosiy eʼtiborni mahsulotni ishlab chiqarishga (yetishtirishga) qaratadi. Ammo mahsulotni saqlash va uni isteʼmol uchun tayyor mahsulotga aylantirish infratuzilmasi yetishtirilgan mahsulotlar miqdoriga koʻra shakllantirilmay, sotish tizimini shakllantirish, boshqaruv va logistika masalasi boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega emas. Fermer va dehqon xoʻjaliklarida boshqaruv xarajatlari deyarli hisobga olinmaydi. Mahsulotlarning oʻz-oʻzidan sotilishi taxmin qilinadi. Bunday muammolar yechimi esa maqsadli savdoni taʼminlash imkonini beruvchi samarali boshqaruv faoliyati amalga oshirilishi lozimdir. Qolaversa, mahsulotni saqlash, isteʼmolchi uchun tayyor mahsulotga aylantirish va boshqaruv bilan bogʻliq xarajatlarni biznes-vositachiga "yuklash"ga toʻgʻri keladi. Avvalambor, saqlanishi kerak boʻlgan mahsulotlar dalaga yaqin boʻlgan omborlarda saqlanishi kerak, chunki bunday mahsulotlar uchun har bir soat gʻanimat. Agar yigʻim-terimdan keyin bu mahsulotlar maxsus sharoitli omborlarga tez orada joylanmasa, ularning sifati keskin pasayib ketishi mumkin. Shuning uchun mahsulotni saqlash alohida biznes emas, butun dunyoda maxsus omborxonalar qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar yoki ularning kooperativlariga tegishli hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bu biznes ishlab chiqaruvchilar nazorati ostida. Agar maxsus omborlar soni yetarli boʻlmasa, mahsulotni saqlash orqali qoʻshimcha daromad olish imkoniyati

⁵³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5853-сонли Фармони. //Халқ сўзи 2019 йил 24 октябрь

mavjud emas. Bunday sharoitda mahsulot narxlari butun mavsum davomida barqaror bo‘lib qoladi.

Ayniqsa, meva-sabzavotchilik sohasida klasterlashning innovatsion omillari va tamoyillarini aniqlash, klaster yondashuvi asosida tarmoqning innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkorlikni samarali tashkil qilish, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, mahsulot sifatini oshirish, investisiyalarni jalb qilish orqali modernizatsiya jarayonlarini takomillashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, meva sabzavotchilik sohasida klasterlarni boshqarishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, hududiy klasterlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish istiqbolli vazifalardan biridir. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetkazib berishda savdo-logistika, sotish va saqlash jarayonlarini muvofiqlashtirish, biznes yuritishda samarali boshqaruv strategiyalaridan foydalanish asosida iqtisodiy o‘sishga erishishga qaratilgan yo‘nalishlarga alohida e‘tiborqaratish lozim bo‘lib, mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish maqsadida meva-sabzavotchilik sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularni tartibga solishda klaster yondashuvini qo‘llash zarurligini o‘rganish, meva-sabzavotchilik klasterlarining tuzilishi, muammolari va rivojlanish istiqbollari hududda meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashda klaster yondashuvini amalga oshirishga imkon beruvchi strategiyalarini aniqlash, tashkiliy-iqtisodiy mexanzmlarni shakllantirish kabi istiqbolli yo‘nalishlarni ishlab chiqish va rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.H.Berdiyev. Meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish sohasida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish.// Monografiya. Qarshi: «Intellekt» nashriyoti.- 2022.

2. Khalmatjanova, G. D., Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems* (pp. 49-54). Springer, Cham.

3. Mannopova M.S. Qishloq xo‘jaligida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishning xalqaro tajribalari va unda klaster tizimining afzalliklari. Ta‘lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar// -2024.-№4.

4. UzDaily.uz-rasmiy axborot sayti

5. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb sayti